

## SAIDMUXTOR SAIDQOSIMOVNING SERQIRRA VA SAMARALI HAYOT YO'LI SHOGIRDI JO'RAYEV QOBIL ASADOVICH NAZDIDA

*Qalandarov Javoxir Muxtorovich  
SamDU Tarix fakulteti 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada atoqli olim, taniqli davlat va jamoat arbobi, ko'plab shogirdlarning sevimli ustozni S.S.Saidqosimovning ilmiy va amaliy ishlari, barchaga o'rnak hayoti yo'li, sharafli faoliyati haqida yozilgan lavhalar o'rinni olgan. Saidmuxtor Saidg'oziyevich uzoq yillar davomida turli yuqori mas'uliyatlari lavozimlarda fidokorona mehnat qilib, Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Ayniqsa, yoshlarni barkamol avlod ruhida tarbiyalashda uning o'rni beqiyosdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ham ustozning faoliyatiga munosib baho berib, «jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalik, o'zaro hurmat va ham-jihatlik muhitini mustahkamlash yo'lidagi faoliyatingiz, boy bilim va hayotiy tajribangiz farzandlarimiz uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda» deb alohida ta'kidlaganlar.

**Kalit so'zlar:** Diplomat, ilmiy va amaliy ishlari, siyosat olami yetakchisi, sevimli ustoz, davlat va jamoat arbobi.

**Аннотация:** В данной статье написаны фотографии о научной и практической деятельности С.С. Сайдкосимова, известного учёного, известного государственного и общественного деятеля, любимого учителя многих студентов, его жизни как примера для всех, его почетная деятельность. Сайдмухтар Сайдгазиевич на протяжении многих лет самоотверженно трудится на различных высокоответственных должностях, внося достойный вклад в развитие нашей страны. В частности, несравненна его роль в воспитании молодежи в духе идеального поколения. Президент Ш.М.Мирзиёев дал достойную оценку деятельности учителя и сказал, что «ваша деятельность по укреплению атмосферы мира и спокойствия, взаимного уважения и согласия в нашем обществе, ваши богатые знания и жизненный опыт служат образцовой школой». для наших детей», — подчеркнули те.

**Ключевые слова:** Дипломат, научно-практическая деятельность, лидер политического мира, любимый учитель, государственный и общественный деятель.

Bu hayotda erishgan ozmi-ko'pmi yutuqlarim, oldimdag'i reja va niyatlarim, haqida mulohg'aza yurutib, bularning aksariyati uchun bevosita sababchi bo'lgan sevimli ustozim Saidmuxtor Saidqosimovichning men uchun doimo ibrat manbai bo'lgan sermazmun hayot yo'liga ko'p sonli minnatdor shogirtlaridan biri sifatida nigoh tashlashga qaror qildim. Saidmuxtor Saidqosimov 1947-yil 8- mart kuni

Toshkent shahrida ziyoli oilada tug'ilgan. 1965-yilda o'rta maktabni oltin medal bilan tugatgach, 1970-yili Toshkent davlat universitetini [hozirgi O'zbekiston milliy universiteti] bitirgach, 1977- yil falsafa fanlari nomzodi, 1987- yil falsafa fanlari doktori ilmiy darajadsini, 1992-yil professor unvonini olishga muvaffaq bo'lган. 1994-yili unga O'zbekistonning Favqulotda va muxtor elchisi diplomatik darajasi berilgan.

Saidmuxtor Saidqosimov o'z mexnat faoliyatini o'qituvchilikdan boshlagan. 1970-1983-yillar davomida Toshkentdagi qator oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlarida o'qituvchi yetakchi ilmiy xodim, kafedra mudiri, bosh ilmiy kotib lavozimlarida mehnat qilgan qilgan. 1983-1986 yillarda Toshkent viloyati partiya tashkilotida fan va talim mussasalari bo'limining boshlig'I, 1986-1988 yillarda O'zbekiston „Bilim„ jamiyati raisining birinchi o'rinnbosari - boshqaruв kengashining raisi, 1988- 1991 yillarda Moskvada Kompartiya Markaziy qo'mitasida Millatlararo va davlatlararo munosabatlar bo'limining O'rta Osiyo va Qozog'iston sektori mudiri, ayni paytda M.Lomonosov nomli Moskva davlat universitetining politologiya kafedrasи professori hamda Ijtimoiy fanlar Akademiyasining millatlararo munosabatlar kafedrasи professori {o'rindoshlik asosida} lavozimlarida o'z bilimi va rahbarlik maxoratini sharxlagan.

1991-1992 yillarda u O'zbekiston Prizidentining aloxida muxim topshiriqlar bo'yicha yordamchisi, 1992-1993 yillarda Prizidentning fan, talim, madaniyat va ijtimoiy masalalar bo'yicha Davlat maslaxatchisi, 1993-1998 yillarda O'zbekiston Prizidentining siyosiy masalalar bo'yicha Davlat maslaxatchisi, 1992-1998 yillarda Jaxon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rektori {o'rindoshlik asosida} 1993-1996 yillarda O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri, 1994-1996 yillarda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinnbosari, 1993-1998 yillarda YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasining raisi lavozimlarida faoliyat yurutgan. 1995- yilda AQSH dagi jaxon bankining Iqtisodiy taraqqiyot inustitutida malaka oshirgan. 1996-yil Londondagi Vesministr universiteti faxriy professori etib saylangan. 1995-yildan beri Zimbabve universitetidagi YUNESKO kafedrasining faxriy raxbari hisoblanadi.

Keltirilgan sanalar yirik serqirra olim va kata amaliy tajriba to'plagan raxbarning izchil shakllanib borgan boy hayot yo'lini aks ettiradi. U davlat idoralarida xizmat qilgan paytida o'zining yuksak tashabbuskorlik qobiliyatini nomoyon eta oldi. Jumladan 1992-yilda mustaqil O'zbekistondagi ilk oliy talim muassasi Jaxon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetini tashkil qilishda va shakllantirishda juda kata jonbozlik ko'rsatdi. Ustozning ushbu universitet bunyodkori sifatida o'ta samarali mehnatlari xech yodimdan chiqmaydi. Men Saidmuxtor akaning eng birinchi talabalaridan bo'lib, o'sha davrdagi xotiramda qolgan ularni yaqindan kuzatishlar natijasida shakllangan xulosalarim hamon faoliyatimdagi ko'p holatlarda to'g'ri yechim topishimga yordam berib kelmoqda.

Rektor talabalar bilan tez-tez uchrashib turar edi. SHunday muloqotlardan birida u kishining aytgan bir gaplari haligacha qulog'imda jaranglab turadi: "Qadrli yosh do'stlarim, shuni yaxshi bilingki, endi mustaqil Vatanimizning kelajagini barchamiz o'z qo'limiz bilan qurushimiz kerek! Tashqaridan kelib, hech kim bizga beg'araz yordam bermaydi. Faqat sizlarning egallayotgan chuqur zamonaviy bilimlaringiz va ona yurtga cheksiz sadoqatingizgina O'zbekistonni juda rivojlangan boshqalar havas qiladigan, davlatga aylantira oladi. Tinim bilmay ana shunga intilishimiz kerak". Darhaqiqat, mustaqilligimizning 30 yillik davri bu gapning nechog`lik yaqqol isbotlab turibdi. O'tgan yillar ichida 6-mingdan ziyod yigit-qizlar usgbu universisetni bitirishga muvaffaq bo`ldilar. Ular hozirda turli vazirlik va idoralarda, xalqaro hukumat va nodavlat tashkilotlarida, yirik xalqaro kompaniyalarida samarali faoliyat olib borib, O'bekiston obro`siga obro qo`shmoqdalar.

Universitetda eng birinchi talabalar safida o'qigan davrim hech yodimdan chiqmaydi. Bu yerda juda ajoyib, ijodiy muhit shakllangan bo'lib, professor o'qituvchilar va talabalar go'yo bir katta oila azolari kabi edilar. Muallimlarimizning Respublikadagi eng ilg'or, o'z soxasini mukammal egallagan pedogoglardan iborat edi. Biz Sattor Tursin Muhammadov, Rahmon Farmonov, Shuxrat G'oyibnazarov, Muzrob Turdiyev, Abbas Irisqulov, Xusniya Murodova, Vicheslav Golichev, Georgiy toniyansi, Atxam Rasulov, Olga Platkinova, Rada Androva, Xolida Nasriddinova, Petr Kolishin, Erkin Maxmudov, Baxtiya Shamsiyev, Elmira Raximova, Numon Kamolov, Erkin Maxmudov, Elyor Karimov, Galina Raxmatullayeva, Istora Fozilova kabi yana yigirmadan ortiq tajribali va yuqori maxoratli, pedagogik ustozlardan saboq olishga muvaffaq bo`lgandik.

O'sha davrda Saidmuxtor Saidqosimov O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri lavozimida ham faoliyat ko'rsatar va, tabiiyki universitetni rivojlantirish yo'lida bor mamuriy resurslardan unumli va o'z o'rnida bor mamuriy resurslardan unumli va o'z o'rnida foydalanishni ham unutmas edilar. Rektorimiz sayharakatlari tufayli o'sha paytda qator yetakchi davlatlarning O'zbekistondagi elchilarini ham o'quv jarayoniga maruzachi sifatida jalb qilingan edi. Shaxsan men boshqa kursdoshlarim qatorida, AQSHning O'zbekistondagi elchisi Genri Klark, Yaponiya elchisi Ugero Magosaki, Fransiya elchisi Jan-Pol Vezian, uning rafiqasi Vezian xonim kabi tajribali diplomatlarning bir qancha juda qiziqarli va unutilmas ma'ruzalaridan bahramand bo'lganman. Ular studentlikdagi ko'z o'ngimizda yirik chet mamlakatlar elchilarini sifatida tarixiy shaxslar bo'lib ko'rinardi.

«Universitetning ilk qaldirg'ochlari» deb atalgan biz, birinchi talabalar, yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda tinimsiz, tunu-kun faqat o'quv mashg'ulotlari bilan shug'ullanar edik. Ochig'ini aytaman, yaxshi baho uchun kimgadir «sovga» berish kerakligi xayolimizga ham kelmagan. Sababi, hamma sinovlar, imtihonlar juda ochiq oydin o'tardi. Universitetda o'qish rasman pullik bo'lib,

rektorimiz «Xalq banki»da talabalar uchun olti yil davomida foizsiz ta’lim krediti liniyasi ochilishiga erishgan edi. Bundan tashqari, a’lochi talabalar uchun «JIDU grantlari» tizimi ham yo‘lga qo‘yilgan edi. Shaxsan men ikki yil ketma-ket, 1993 va 1994 yillari, faqat a’lo baholarda o‘qiganligim bois, o‘quv kursi (o‘sha paytda dekanat shunday nomlanar edi) rahbari Muzrob Turdiyevning rektor nomiga yozgan tavsiyasi va Ustoz tomonidan uning qo‘llab quvvatlanishi natijasida oxirgi kurslarda JIDU granti asosida bepul o‘qish imkoniyatiga erishgandim. Bunday muruvvat mendek o‘rta hol oilada o‘sigan farzand uchun universitetimni muvaffaqiyatli va o‘z vaqtida tugata olishimga juda zarur moddiy zamin yaratgan edi.

Darvoqe, o‘quv kursimiz rahbari Muzrob Turdiyev anchagina qattiqqa‘l, o‘ta talabchan, ayni paytda, juda adolatli, biz yoshlar uchun kuyunuvchan inson edi. Ushbu fidoyi rahbar doimo talabalar hayoti bilan birga yashar, hammamizning ichki ahvolimizdan to‘liq xabardor bo‘lib, o‘z vaqtida mehribonlik, kerakli yordam ko‘rsatib, maslahatlarini hech qachon ayamasdi. U kishi tom ma’noda universitetimizning ustunlaridan biri edi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Keyinchalik ham minglab studentlar xotirasida ajoyib inson, adolatli rahbar sifatida muhrlanib qolgan Muzrob Turdiyev uzoq yillar davomida JIDUda dekan, ma’naviyat ishlari bo‘yicha prorektor, rektor vazifasini bajaruvchi lavozimlarida samarali faoliyat olib bordi.

Ayni paytda JIDUda minglab talabalar tahsil olmoqda. Ularga professor S.Saidqosimov asos solgan yondashuv asosida eng zamonaviy siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy jarayonlar, ularagi murakkab vaziyatlar, ziddiyat va qarama-qarshiliklar, ularning sabablari haqida chuqur saboq berilmoqda. O‘qish dasturlarida barcha siyosiy fanlar, milliy davlatchiligidan asoslarini o‘rganish, globallashuv sharoitida ichki va tashqi siyosatni shakllantirish muammolarini, mamlakatimizda Prezident Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan ulkan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishga doir fanlar bosh o‘rinni egallamoqda. Men ham endi professor lavozimida sevimli universitetimdagи o‘qish va tarbiya jarayoniga imkon darajasida o‘z hissamni qo‘shayotganligimdan faxrlanaman.

## **XULOSA**

Bor haqiqat shundaki, katta hayotiy va kasbiy tajriba sohibi bo‘lgan Saidmuxtor Saidg‘oziyevich tug‘ma diplomat, siyosatshunos, faylasufona fikrlaydigan hamda yuksak madaniyatli komil inson bo‘lib, hozirda ham o‘zlaridan ma’naviyat va ma’rifat nurlarini taratib kelmoqdalar. Men ushbu ruhiy shifobaxsh nurlardan yana minglab shogirdlar ko‘p yillar davomida bahramand bo‘lishlarini juda-juda istayman! Ustoz shuningdek, 1996 – 1998 yillarda «O‘zbekiston Respublikasi Qomusi»ini yaratish bo‘yicha Hukumat qarori qabul qilinishiga erishdi va bu borada tuzilgan ishchi guruhiga bevosita rahbarlik qilib, bir necha yillar davomida yangi ko‘pjildlik mustaqil O‘zbekiston qomusini tayyorlash va nashr etishda ham beqiyos xizmat ko‘rsatdi.

Hayotimda taqdir menga va mendek minglab shogirdlarga shunday Ustozni nasib etganidan cheksiz faxrlanaman!

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. "Davlat arbobi, diplomat ustoz" // Jo‘rayev Qobil Xo‘jayevich. - Toshkent. Yanginashr. 2022.
2. "Global Times" gazetasi muxbirining S.Saidqosim bilan intervyusidan. 09.12.2022.
3. "National Library of Uzbekistan" jurnali. 16-dekabr 2022-y.
4. "O‘zbekiston ovozi". № 13 (32.759). 12.04.2024.
5. "O‘zbekiston ovozi". № 2 (32.696). 12.01.2022.
6. "O‘zbekiston ovozi". № 24 (32.718). 01.02.2023.
7. "Saodat jurnali". № 14. 15- iyun 2022-yil.
8. "Xalq so‘zi" gazetasi oxirgi soni. № 56. 16.03.2024.
9. "Женъминъ жибао" jurnali. № 13. 16.12.2022.
10. S.Saidqosimov. "Ulug‘ insonlar ma’naviyati". - Toshkent. 2017.